ISSN 2010-6246

ILM SARCHASHMALARI

ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNAL

Science Top Sources

Scientific-theoretical, methodical journal

2026.7

www.ilmsarchashmalari.uz

ISSN 2010-6246

9 772010 624002 >

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI


Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FIZIKA-MATEMATIKA, FALSAFA, FILOLOGIYA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

7-son (iyul 2026)

Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan

Urganch – 2026

Tadqiqotimiz jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Kahoot platformasidan foydalanish:



Ayniqsa, rasmli topshiriqlar va naqshlarni tahlil qilishga qaratilgan interaktiv savollar dizaynerlik faoliyatiga oid ko‘nikmalarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, “Zardo‘zlik san’ati, tikuv buyumlarini zardo‘zlik usuli bilan bezash” mavzusini o‘qitishda Kahoot platformasidan foydalanish talabalarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Platforma orqali tashkil etilgan gamifikatsion faoliyat talabalar motivatsiyasini oshiradi, vizual tafakkurini rivojlantiradi, kompozitsion fikrlashni shakllantiradi hamda kreativ kompetensiyalarni takomillashtiradi. Shu bois Kahoot dasturini xalq hunarmandchiligi va badiiy bezash fanlarini o‘qitish metodikasiga integratsiya qilish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Tolipov O.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2021.

(2). San’atjonovna M.N. Use of infographics method in teaching students design science. Sustainability of Education, socio-economic science theory. 2023, 1(11), p. 88–91.

(3). San’atjonovna M.N. The importance of developing special skills in preparing students for design activity //International journal of scientific researchers.

(4). Sharipova N.M. Talabalarda dizaynerlik mahoratini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 6-jild, 12-son, 13.12.2023.

(5). Murodova N. Talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatining mohiyati Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. 2024, т. 3, №.2, с. 19–21.

(6). Ishmuhamedov R. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. Toshkent, 2022.

Jo‘rayev Oybek Sherali o‘g‘li (Malayziyaning University College Sedaya International universitetining ta’lim magistranti; jorayevoybek265@gmail.com),
Otajanova Manzura Omanboyevna (filologiya fanlari doktori, professor; Renessans ta’lim universiteti)

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA JADID ADABIYOTINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada jadid adabiyotini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishda multimerdia texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Jadid adabiyotining tarixiy-ma’rifiy mohiyati, uning yosh avlod ma’naviy kamolotidagi o‘rni hamda zamonaviy raqamli pedagogika bilan integratsiyalash imkoniyatlari yoritiladi. Multimedia vositalari sifatida audio va video materiallar, infografikalar, interaktiv xaritalar, virtual ekskursiyalar, Kengaytirilgan reallik va Virtual re-*

allik texnologiyalari hamda raqamli hikoyachilik metodlarining ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari multimedia vositalari jadid adabiyotini o'qitishda o'quvchilarning tarixiy tafakkuri, estetik didi, tanqidiy fikrlashi va mustaqil mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *jadid adabiyoti, multimedia texnologiyalari, adabiy ta'lim, raqamli pedagogika, virtual ekskursiya, interaktiv ta'lim, innovatsion metodika.*

Жураев Ойбек Шерали угли (магистрант образования Университетского колледжа Sedaya International (UCSI), Малайзия; jorayevoybek265@gmail.com),
Отажанова Манзура Оманбоевна (доктор филологических наук, профессор; Университет «Ренессанс»).

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ДЖАДИДСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и методические основы использования мультимедийных технологий при преподавании джадидской литературы в общеобразовательных школах. Освещаются историко-просветительская сущность джадидской литературы, её роль в духовно-нравственном развитии молодого поколения, а также возможности её интеграции с современной цифровой педагогикой. Научно обосновывается влияние таких мультимедийных средств, как аудио- и видеоматериалы, инфографика, интерактивные карты, виртуальные экскурсии, технологии дополненной и виртуальной реальности, а также методы цифрового сторителлинга на повышение эффективности образовательного процесса. Результаты исследования показывают, что мультимедийные средства являются важным фактором развития у учащихся исторического мышления, эстетического вкуса, критического мышления и навыков самостоятельного анализа при изучении джадидской литературы.*

Ключевые слова: *джадидская литература, мультимедийные технологии, литературное образование, цифровая педагогика, виртуальная экскурсия, интерактивное обучение, инновационная методика.*

Jo'rayev Oybek Sherali o'g'li (Master's Student in Education, University College Sedaya International (UCSI), Malaysia; jorayevoybek265@gmail.com),
Otajanova Manzura Omanboyevna (Doctor of Philological Sciences, Professor; Renaissance University of Education).

METHODOLOGY FOR USING MULTIMEDIA TOOLS IN TEACHING JADID LITERATURE IN SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Annotation. *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using multimedia technologies in teaching Jadid literature in secondary schools. It highlights the historical and educational significance of Jadid literature, its role in the spiritual and moral development of the younger generation, and the possibilities of its integration with modern digital pedagogy. The study scientifically substantiates the educational effectiveness of various multimedia tools, including audio and video materials, infographics, interactive maps, virtual excursions, augmented reality (AR) and virtual reality (VR) technologies, as well as digital storytelling methods. The findings demonstrate that multimedia technologies serve as an important factor in developing students' historical thinking, aesthetic appreciation, critical thinking skills, and independent reasoning abilities in the process of teaching Jadid literature.*

Key words: *Jadid literature, multimedia technologies, literary education, digital pedagogy, virtual excursions, interactive learning, innovative methodology.*

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. Raqamli ta'lim muhitining shakllanishi, elektron ta'lim platformalarining keng qo'llanilishi hamda multimedia tex-nologiyalarining pedagogik jarayonga izchil joriy etilishi o'qitish metodlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'lim konsepsiyasida o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki bilimni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo'llay oluvchi shaxs sifatida shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim jarayonida interaktiv metodlar va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda o'quv materialini chuqurroq o'zlashtirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitish jarayonida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki adabiyot darslari nafaqat badiiy

asarni o‘qish va tahlil qilish, balki o‘quvchilarda estetik did, ma’naviy qadriyatlar, tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash va mustaqil fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy adabiy merosning muhim qatlamlaridan biri bo‘lgan jadid adabiyotini o‘qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish dolzarb ilmiy va metodik masalalardan biri hisoblanadi.

Jadid adabiyoti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotida yuz bergan milliy uyg‘onish harakatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Ushbu adabiyot namoyandalari o‘z asarlarida xalqni ilm-ma’rifatga chorlash, zamonaviy ta’limni rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash, Vatan ravnaqi va erkinlik g‘oyalarini ilgari surdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov singari jadid ma’rifatparvarlari adabiyot, matbuot, teatr va maktabni jamiyat taraqqiyotining muhim vositasi sifatida baholaganlar. Shu bois ularning asarlarini o‘rganish bugungi yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq jadid adabiyotini o‘qitish o‘ziga xos murakkabliklarga ega. Sababi, jadid asarlarida aks etgan g‘oyalarni to‘liq anglash uchun faqat badiiy matnni o‘qishning o‘zi yetarli emas. O‘quvchilar asar yaratilgan davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitini, jadidchilik harakatining maqsad va vazifalarini, mualliflarning hayoti hamda ma’rifiy faoliyatini ham bilishlari zarur. Aks holda, asarning badiiy va g‘oyaviy mohiyatini to‘liq idrok etish qiyinlashadi. An’anaviy darslarda bunday murakkab tarixiy-adabiy kontekstni to‘liq yoritish ko‘p vaqt talab qiladi va o‘quvchilarning qiziqishini doim ham yuqori darajada saqlab qolmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, multimedia texnologiyalaridan foydalanish jadid adabiyotini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Audio va videomateriallar, elektron taqdimotlar, infografikalar, interaktiv xaritalar, virtual ekskursiyalar, kengaytirilgan reallik (AR), virtual reallik (VR) hamda raqamli hikoyachilik (digital storytelling) kabi vositalar murakkab tarixiy va adabiy jarayonlarni o‘quvchilar uchun ko‘rgazmali, tushunarli va qiziqarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat matn mazmunini o‘zlashtiradilar, balki asarning yaratilish sharoiti, muallifning dunyoqarashi va tarixiy voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham chuqurroq anglaydilar.

So‘nggi yillarda multimedia texnologiyalarining ta’lim jarayoniga ta’siri bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ularning aynan jadid adabiyotini o‘qitish metodikasidagi imkoniyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida jadid adabiyoti tarixiy-adabiy hodisa sifatida yoki multimedia vositalari umumiy pedagogik texnologiya sifatida tahlil qilingan. Biroq ushbu ikki yo‘nalishni o‘zaro integratsiyalash, ya’ni, jadid adabiyotini multimedia vositalari yordamida o‘qitishning metodik asoslarini ishlab chiqish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, umumta’lim maktablarida jadid adabiyotini o‘qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha yagona metodik tizimning shakllanmaganligi, mavjud dars ishlanmalarida raqamli pedagogika imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotgani hamda o‘quvchilarning tarixiy-adabiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi tadqiqotning asosiy muammosini tashkil etadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi umumta’lim maktablarida jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy asoslari va metodik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

•jadid adabiyotining ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy manbalar asosida yoritish;

•multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish;

•jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia vositalarining metodik afzalliklarini aniqlash;

•multimedia asosida tashkil etilgan darslarning o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri, estetik didi, tanqidiy fikrlashi va mustaqil mushohada yuritish ko‘nikmalariga ta’sirini tahlil qilish;

•jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktablarida jadid adabiyotini o‘qitish jarayoni tanlandi.

Tadqiqot predmeti esa jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi hamda uning pedagogik samaradorligidan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia vositalaridan kompleks foydalanishning metodik modeli ishlab chiqildi, audio va videomateriallar, infografikalar, interaktiv xaritalar, virtual ekskursiyalar, AR va VR texnologiyalari hamda raqamli hikoyachilik meto-

dining ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi va ularning o'quvchilarning tarixiy tafakkuri, estetik didi hamda tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan ilmiy xulosalar va metodik tavsiyalar umumta'lim maktablarida jadid adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jadid adabiyoti o'zbek milliy uyg'onish davrining muhim ma'naviy va madaniy hodisalaridan biri bo'lib, uning tarixiy, adabiy hamda pedagogik jihatlari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. O'zbek adabiyotshunosligida jadidchilik harakati va uning namoyandalari faoliyatini o'rganishda B.Qosimov, Q.Yo'ldoshev, U.Dolimov, A.Avloniy, A.Fitrat hamda Cho'lpon asarlari muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etiladi.

B.Qosimovning Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti nomli tadqiqotida jadid adabiyotining shakllanish bosqichlari, uning g'oyaviy-estetik xususiyatlari hamda milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni keng tahlil qilingan [1]. Muallif jadid adabiyotini milliy taraqqiyot va ma'rifatparvarlik harakatining asosiy tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Mazkur tadqiqot jadid adabiyotining tarixiy va adabiy mohiyatini yoritishda muhim nazariy manba bo'lsa-da, unda multimedia texnologiyalaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqilmagan.

Q.Yo'ldoshevning ilmiy qarashlarida adabiy ta'lim jarayonida badiiy matnni tahlil qilish, o'quvchilarning estetik didini shakllantirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Olim adabiy asarni chuqur anglash uchun o'quvchini faol tafakkur jarayoniga jalb etish zarurligini ta'kidlaydi. Biroq ushbu yondashuvlarda zamonaviy multimedia vositalarining didaktik imkoniyatlari yetarlicha yoritilmagan.

U.Dolimovning tadqiqotlarida jadid pedagogikasining shakllanishi, uning ta'lim-tarbiyaga oid tamoyillari va milliy ma'rifat tizimidagi o'rni ilmiy asoslangan [3]. Muallif jadidlarning ta'limni isloh qilish borasidagi qarashlarini tahlil qilgan bo'lsa-da, ularning g'oyalarini bugungi raqamli ta'lim muhiti bilan integratsiyalash masalasi tadqiqot doirasiga kiritilmagan.

Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari jadid pedagogikasining nazariy asoslaridan biri bo'lib, unda yosh avlodni ma'naviy va axloqiy tarbiyalashning ilmiy tamoyillari bayon etilgan [4]. Shuningdek, Fitrat va Cho'lpon asarlarida milliy o'zlik, inson erkinligi, ma'rifat va taraqqiyot g'oyalari badiiy-estetik jihatdan yuksak darajada ifodalangan [5;6-b.]. Ushbu asarlar jadid adabiyotining mazmunini o'rganishda muhim manba bo'lsa-da, ularni zamonaviy multimedia texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi alohida tadqiq etilmagan.

Xorijiy tadqiqotlarda esa multimedia texnologiyalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri keng o'rganilgan. Richard Mayer multimedia orqali taqdim etilgan axborot vizual va verbal kanallarni birgalikda faollashtirishini, bu esa bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qilishini ilmiy asoslaydi [7]. Roxana Moreno multimedia vositalarining interaktiv ta'limni tashkil etishdagi afzalliklarini yoritib, ularning o'quvchilarning bilish faolligi va motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [8]. John Sweller esa kognitiv yuklama nazariyasi asosida multimedia vositalari o'quv materialini tizimli va bosqichma-bosqich taqdim etganda ta'lim samaradorligi oshishini isbotlaydi [9]. Tony Bates raqamli pedagogika sharoitida multimerdia texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismi ekanligini qayd etadi [10].

Mazkur tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek olimlari, asosan, jadid adabiyotining tarixiy, adabiy va pedagogik jihatlarini o'rgangan bo'lsalar, xorijiy tadqiqotchilar multimedia texnologiyalarining umumiy didaktik imkoniyatlarini yoritganlar. Biroq jadid adabiyotini umumta'lim maktablarida multimedia vositalari asosida o'qitish metodikasi, xususan, audio va videomateriallar, infografikalar, virtual ekskursiyalar, kengaytirilgan reallik (AR), virtual reallik (VR) hamda raqamli hikoyachilik metodlarini kompleks qo'llash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida jadid adabiyotini o'qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, sifat (qualitative) tadqiqot yondashuvi asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini adabiy ta'lim nazariyasi, zamonaviy pedagogika, raqamli ta'lim texnologiyalari hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari tashkil etadi. Ish jarayonida jadid adabiyotining mazmuni, uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni va multimedia vositalarining didaktik imkoniyatlari o'zaro bog'liq holda o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy bazasini jadid adabiyotiga oid ilmiy adabiyotlar, pedagogika va metodika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, multimedia texnologiyalarining ta'limdagi qo'llanilishiga bag'ishlangan mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi. Xususan, jadidchilik harakati va uning namoyandalari faoliyatini

yorituvchi ilmiy asarlar, adabiyot o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlar, Richard Mayer, Roxana Moreno, John Sweller hamda Tony Bates kabi olimlarning multimedia ta’limiga bag‘ishlangan ishlari metodologik manba sifatida o‘rganildi. Ushbu manbalarni qiyosiy tahlil qilish multimedia vositalarining jadid adabiyotini o‘qitishdagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Qiyosiy-tahliliy metod yordamida an’anaviy adabiyot darslari bilan multimedia vositalari qo‘llanilgan ta’lim jarayonining metodik imkoniyatlari o‘zaro solishtirildi. Ushbu metod asosida multimedia vositalarining o‘quvchilarning bilish faolligi, tarixiy tafakkuri, estetik didi va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi afzalliklari tahlil qilindi.

Kontent-tahlil metodidan foydalanish orqali jadid adiblari asarlarining mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi va ularni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan multimedia resurslari o‘rganildi. Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi, Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari, Abdurauf Fitrat hamda Cho‘lpon asarlaridagi ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va vatanparvarlik g‘oyalari multimedia vositalari yordamida o‘qitish nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Shuningdek, tahlil va sintez metodlari tadqiqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘ldi. Tahlil metodi orqali o‘rganilgan ilmiy manbalar alohida tarkibiy qismlarga ajratilib o‘rganilgan bo‘lsa, sintez metodi yordamida olingan ilmiy xulosalar umumlashtirildi va jadid adabiyotini multimedia vositalari asosida o‘qitishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan ilmiy manbalarning ishonchliligi, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarini o‘zaro qiyoslash, tahlil natijalarining izchilligi hamda xulosalarning ilmiy mantiqqa asoslanganligi bilan ta’minlandi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq tanlangan bo‘lib, ular jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia vositalarining pedagogik imkoniyatlarini har tomonlama yoritishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Jadid adabiyotini umumta’lim maktablarida o‘qitish jarayoni nafaqat adabiy asarning mazmunini o‘zlashtirishni, balki o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, milliy o‘zlikni anglash va estetik didni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu sababli mazkur fan doirasida qo‘llaniladigan metod va vositalarning o‘quv jarayoni samaradorligiga ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy dars usullari bilan bir qatorda, multimedia texnologiyalaridan foydalanish jadid adabiyotining murakkab tarixiy va badiiy mazmunini o‘quvchilarga tushunarli hamda qiziqarli tarzda yetkazishga imkon beradi.

Audiomateriallardan foydalanish, ayniqsa, she’riy asarlarni o‘qitishda samarali hisoblanadi. Professional diktor yoki aktyor ijrosidagi she’rlarni tinglash orqali o‘quvchilar badiiy matndagi ohang, pauza, hissiy ifoda va muallif kayfiyatini yaxshiroq his qiladilar. Natijada she’rning mazmuni oddiy o‘qish orqali emas, balki tinglash va his qilish orqali ham o‘zlashtiriladi. Bu esa o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirish bilan birga ularning nutq madaniyati va badiiy tafakkurining shakllanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Interaktiv metodlarning multimedia vositalari bilan uyg‘unlashuvi dars samaradorligini yanada oshiradi. Onlayn testlar, elektron viktorinalar, "Aqliy hujum", "Klaster", "Konseptual xarita" kabi metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytiradi, fikr almashish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, guruhlarda multimedia loyihalarini tayyorlash jarayonida o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash, muloqot qilish va o‘z fikrini asoslab bera olish kompetensiyalari shakllanadi.

Tahlil jarayonida multimedia vositalarining pedagogik imkoniyatlari quyidagicha tizimlashtirildi.

1-jadval

Jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia vositalarining pedagogik imkoniyatlari

Multimedia vositasi	Ta’limdagi vazifasi	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Audiomateriallar	She’riy va nasriy matnlarni ifodali idrok etish	Estetik did, tinglab tushunish
Videomateriallar	Tarixiy voqelikni vizual namoyish etish	Tarixiy tafakkur, tahliliy fikrlash
Infografikalar	Murakkab ma’lumotlarni tizimlashtirish	Mantiqiy tafakkur
Interaktiv xaritalar	Jadidchilik harakatining geografiyasini o‘rganish	Fazoviy tasavvur
Virtual ekskursiyalar	Tarixiy muhit bilan tanishtirish	Tarixiy empatiya
AR va VR texnologiyalari	Interaktiv ta’lim muhitini yaratish	Vizual tafakkur
Raqamli hikoyachilik	Multimedia loyiha yaratish	Ijodkorlik va kommunikativ kompetensiya

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, multimedia vositalarining har biri ta’lim jarayonida o‘ziga xos didaktik vazifani bajaradi. Ularning kompleks qo‘llanilishi esa o‘quvchilarning nafaqat fan bo‘yicha bilimlarini, balki zamonaviy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, multimedia texnologiyalaridan foydalanish jarayonida ayrim muammolar ham uchraydi. Ayrim umumta’lim maktablarida texnik vositalarning yetarli emasligi, internet tezligining pastligi, multimedia resurslarining cheklanganligi hamda ayrim pedagoglarning raqamli kompetensiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi darslarni zamonaviy talablar asosida tashkil etishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘qituvchilar uchun AKT bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tizimli ravishda tashkil etish hamda jadid adabiyotiga oid sifatli elektron resurslar bazasini yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar multimedia texnologiyalarining jadid adabiyotini o‘qitishda muhim didaktik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Ularning ta’lim jarayoniga maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri integratsiya qilinishi o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri, estetik didi, tanqidiy fikrlashi, ijodiy salohiyati hamda mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot umumta’lim maktablarida jadid adabiyotini o‘qitishda multimerdia vositalaridan foydalanishning nazariy va metodik jihatlarini tahlil qilishga qaratildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, multimedia texnologiyalarini adabiyot darslariga maqsadli va tizimli ravishda integratsiya qilish o‘quvchilarning jadid adabiyotini chuqurroq o‘zlashtirishiga, tarixiy voqelikni yaxlit tasavvur etishiga hamda badiiy asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini to‘liqroq anglashiga xizmat qiladi. Audio va videomateriallar, infografikalar, interaktiv xaritalar, virtual ekskursiyalar, kengaytirilgan reallik (AR), virtual reallik (VR) hamda raqamli hikoyachilik kabi multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri, estetik didi, tanqidiy fikrlashi, ijodiy yondashuvi va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi asoslandi.

Tadqiqot davomida multimedia texnologiyalaridan foydalanish jadid adabiyotini o‘qitish metodikasini zamonaviy ta’lim talablari asosida takomillashtirish imkonini berishi, darslarning interaktivligini oshirishi hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishi aniqlandi. Shu bilan birga, multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish, jadid adabiyotiga oid sifatli elektron ta’lim resurslarini yaratish va o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini muntazam takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari multimedia texnologiyalarining jadid adabiyotini o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda muhim metodik vosita ekanligini tasdiqlaydi hamda ushbu yondashuvni adabiyot ta’limi amaliyotiga kengroq tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

•umumta’lim maktablari uchun jadid adabiyotini o‘qitishga mo‘ljallangan multimedia resurslari va elektron ta’lim platformalarini yaratish;

•jadid adiblari hayoti va ijodiga bag‘ishlangan videodarslar, virtual ekskursiyalar hamda interaktiv taqdimotlar bazasini shakllantirish;

•adabiyot fani o‘qituvchilarining multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish;

•jadid adabiyotini o‘qitishda AR va VR texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ushbu yo‘nalishda metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

•multimedia vositalaridan foydalanish samaradorligini eksperimental tadqiqotlar asosida yanada chuqurroq o‘rganish va natijalarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Qosimov B. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004.
(2). Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006.
(3). Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. “Toshkent”, 2012.
(4). Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. “Toshkent”, “O‘qituvchi”, 1992.
(5). Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2006.
(6). Cho‘lpon. Asarlar. Toshkent, “Sharq”, 2016.
(7). Mayer R.E. Multimedia Learning. New York, Cambridge University Press, 2021.
(8). Moreno R. Educational Psychology and Multimedia Learning. New York, Routledge, 2019.
(9). Sweller J. Cognitive Load Theory. New York, Springer, 2018.
(10). Bates T. Teaching in a Digital Age. Vancouver, Tony Bates Associates, 2022.
(11). https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Oramov Jura	Sonlar ketma-ketligini limitini hisoblashda progressiyalar nazariyasining tadbiqlari	**3**
Baltayeva Umida Ismoilovna, Asqarova Dildora Ulug‘bekovna, Ro‘zimova Dilnoza G‘ayratovna	O‘sish–fragmentatsiya modeli uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining mavjudligi va yagonaligi	**6**
Gulyamov Gafur, Umarov Qudiratulla Bekboyevich, Majidova Gulnoza Nurmuhammedovna, Madumarova Saodat Qudiratulla qizi	P-N o‘tishli diodlarning volt-amper harakteristikasini (VAX) Nerst-Ettingsgauzen effekti ta’sirida o‘zgarishi	**10**
Raxmatullayeva Nilufar Alisherovna	Tipining o‘zgarish chizig‘i uchta bo‘lgan parabolik-giperbolik tenglama uchun Bitsadze-Samarskiy shartiga o‘xshash shartli masala	**14**
Zikrillaev Nurilla Fathullayevich, Tursunov Orzibek Bahrom o‘g‘li	Monokristall kremniyda rux va selen atomlarini diffuzion legirlash orqali Si2ZnSe binar nanoklasterlarni hosil qilish va ularning elektrofizik xossalari	**18**
Inomova Ozodaxon Shavkatjon qizi	Omborxona logistikasida ko‘p robotli tizimlarni transport masalasini dinamik vaqt cheklovlari ostida modellashtirish	**22**
Almuratov Shavkat Narpulatovich, Butunov Jaxongir Ruziqulovich, Savenko Oksana Viktorovna	Siqiluvchan suyuqlik to‘ldirilgan yupqa devorli silindrik qobiqlarning erkin tebranishlari tahlili	**25**
Xodjabekov Muradjon Usarovich, Qudratov Anvar Ergashevich	Elastik dissipativ xarakteristikali sterjen va dinamik so‘ndirgichlarning birgalikdagi tebranishlari ustuvorligi	**30**
Qurbonova Mahzuna Ro‘ziboyevna	Ochiq kalitli kriptografik algoritmlarning xavfsizlik modellari asosida qiyosiy bardoshlilik tahlili	**33**
Kamolova Moxiniso Farmon qizi	Naive Bayes algoritmi asosida matn hissiyotini avtomatik tahlil qiluvchi dasturiy vositani ishlab chiqish texnologiyasi	**38**
Джураев Шухрат Исроилович, Отажонова Ситорабону Шухратовна	Свободные волы в вязкоупругом полом цилиндре	**42**
Кутлымуратов Баймурат Жиенбаевич	О голоморфном продолжении интегрируемых функций с граничным свойством морера	**47**
Eshdavlatova Sevara Eshmamatovna, Akhmedova Qunduz Samatovna	Fraktal-kasr tartibli differensial tenglamalar yordamida korrupsiya dinamikasini matematik tadqiq qilish	**53**

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Qodirov Fazliddin Yuldoshovich	Fuqarolik madaniyati o‘zbek modelining obyektiv omillari	**57**
Yaxshiboyev Shavkat Quramboyevich	Xorijiy mamlakatlar siyosiy madaniyati tabiati va rivojlanish xususiyatlari	**60**
Pulatov Jaxongir Nazirovich	Yangi O‘zbekistonda inson qadri va ijtimoiy taraqqiyotning falsafiy talqini	**63**
Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o‘g‘li	Zamonaviy o‘zbek jamiyatidagi urf-odat va marosimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati	**67**
Naimov Dostonbek Rustamovich	Turkistonda mustamlakachilik sharoitida shakllangan siyosiy ong va tanqid	**70**

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna	Tarixiy proza matnida lingvomadaniy lakuna hodisasi va uning nazariy talqini	**74**
Abduqaxxorov Sardorbek Akramjon o‘g‘li	O‘zbek tili ensiklopedik korpusining lingvistik arxitekturasi va methontology asosida konseptual ontologiyani shakllantirish bosqichlari	**80**

Hamroyeva Shahlo Mirdjonovnaб Umarova Nozimaxon Qobil qizi	O‘zbek tilida savol-javob tizimining lingvistik va texnologik modeli	**83**
Bakirova Gulasal Davlatovna	Jeyms Joysning “Uliss” romanida okkazionalizmlarning morfologik-stilistik va kognitiv xususiyatlari	**86**
Yusupova Umitxan Nazarbaevna	Qoraqalpoq antroponimikasi rivojlanishining tarixiy-nazariy asoslari	**89**
Elova Dilrabo Qudratillayevna	Lingvistik ekspertizaning metodologik chegaralari va lingvo-mantiqiy yondashuv zarurati	**92**
Abdullayeva Muslimaxon Ubaydulla qizi	O‘zbek muloqot diskursida pragmatik birliklarning presuppozitsiya va implikatura hosil qilish mexanizmlari	**95**
Abdusalomova Madinaxon Toxirjon qizi	O‘zbek tilida raqamli diskurs ta’sirida yangi so‘z yasalish modellari va neologik tizimning transformatsiyasi	**98**
Habiyaliyeva Madina Xolmurod qizi	O‘zbek raqamli diskursida multimodal pragmatik birliklarning shakllanish mexanizmlari va kommunikativ ta’sir strategiyalari	**100**
O‘ngalova Guldasta Amiriddin qizi	XX asr birinchi yarmida Samarqand ilmiy-adabiy muhitida o‘zbek adabiyotshunosligi maktabining shakllanish omillari	**103**
Bekberganova Mariya Dosberganovna	A.tajimuratov – ko‘p qirrali iste’dod egasi	**105**
Mavlanova Gulnigor Baxriddin qizi	Virjiniya Vulf ijodining o‘rganilishi	**109**
Mirzaev Rustamjon Mahmudovich	Chingiz Aytmatov asarlarini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi uslubiy va lingvomadaniy muammolar	**112**
Oripov Alijon Olim o‘g‘li	Badiiy tarjimada adekvatlikni ta’minlashda lingvomadaniy yondashuv	**114**
Raximova Sulurxon Djumaniyozovna	Alisher Navoiy asarlaridagi barqaror til birliklarining madaniy-semantik tadqiqiga doir	**119**
Shernazarova Gulshan Abdullayevna	Nishotiy “Husn-u dil” dostonidagi munozarali ayrim etimologik birliklar tahlili	**123**
Masharipova Valentina Sergeyevna	The Linguistic Status of the Paralinguistic Component in the Portrait Description of a Person	**127**
Surmilova Elena Alekseevna	Linguistic Markedness of Axiological Dominants in the Tongue-Twisters of the English Language	**131**
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	The Role of Onomastic Units in Bilingual Learner’s Dictionaries	**134**
Abduqodirova Madina Abduqayum qizi	Transformational Phenomena and Problems in Translation	**136**
Ziyabayeva Nigina Akhmatilloyevna	Comparative Analysis of Naming Motives in English and Uzbek Languages	**141**
Gulomjonova Nozigul Dilshodbek qizi	Theoretical Approaches to the Conceptual-Semantic and Linguocognitive Study of Ecological Discourse Metaphors	**144**
Qayumova Dilobar	A Comparative Study of Audio Dictionaries in English and Uzbek Lexicography	**148**
Nunnanova Gulshaydo Bekpulatovna	Cognitive Features of the Category of Evaluation in the English and Uzbek Languages	**150**
Ibragimova Anakhon	The Role of Task-Based Learning in Teaching Speaking Skills	**154**
Karimxojaeva Dilafruz	The Concept of “Human” in Language by Typological Features and its Representation in the Linguistic System	**157**
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI		
Tursunov Qahor Shonazarovich	“Fizika”dan mustaqil ta’limi mavzularida fundamental tushunchalarni shakllantirish	**161**
Rajabov Suxrob Xudoyberdiyevich, Teshayev Abbos Adham o‘g‘li	Matematika darslarida muammoli vaziyatlar asosida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun mmm metodi	**165**
Nagmetova Nursulu Muratbaevna	Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida familistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari	**170**

Shukurov Zohid Kuchkarovich, Turobov To‘lqinbek Sherzod o‘g‘li	6–9-sinf matematika darslarida ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun «MDR» didaktik modelining ilmiy-metodik asoslari	**173**
Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna	Pedagogik oliy ta’lim muassasalarida raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari	**178**
Mardonov Ruslanjon Boymurod o‘gli, Boboqulova Fayyoza Axmad qizi	Gazlama materialshunosligi fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	**182**
Radjabov Rashid Farxodovich	Texnologiya dars mashg‘ulotlarida steam ta’lim texnologiyalaridan foydalanish	**185**
Safarova Nigora Nasilloyevna	Kasbiy kompetentlikni baholashning asosiy mezonlari	**189**
Radjapova Feruza	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik madaniyatini refleksiv-dinamik model asosida rivojlantirish	**193**
Sultanov Rustem Abdiraximovich	Elektron ta’lim tizimlarida talaba bilimlarini baholash muammolari	**196**
Sultonova Marvarid Abdulvohid qizi	Flipped Learning texnologiyasi orqali texnika OTM talabalarida modal fe’llar bo‘yicha grammatik kompetensiyani rivojlantirish	**201**
Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi	Raqamli ta’lim texnologiyalari asosida dasturiy ta’minot muhandislarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari	**204**
Raximov Gayrat Buvaxanovich	Talabalarning sog‘lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishning pedagogik usullari	**209**
Murodova Nafisa San’atjonovna	“Zardo‘zlik san’ati, tikuv buyumlarini zardo‘zlik usuli bilan bezash” mavzusini o‘qitishda talabalarning dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirishda kahoot dasturidan foydalanish imkoniyatlari	**213**
Jo‘rayev Oybek Sherali o‘g‘li, Otajanova Manzura Omanboyevna	Umumta’lim maktablarida jadid adabiyotini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasi	**216**
Rasulov Sultonnazir	Bolalarni kitobxon sifatida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari: kutubxona, oila va maktab hamkorligi	**222**
Xabibullaeva Guljaxan Kengesbaevna	Chet tillarini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning ilmiy-nazariy tahlili	**224**
Palvannazirova Yulduz Hasanboy qizi	Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar	**229**
Boltayeva Nasiba Ilhom qizi	Bo‘lajak tarbiyachilarda STEAM texnologiyasi asosida iqtisodiy tarbiya berish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasi	**232**
Jabborova Feruza A’zamovna	Multimadaniy ta’lim jarayonida o‘qituvchining ijtimoiy-kommunikativ faoliyati	**234**
Altibayeva Malika Kuvondikovna	Diagnostik metod orqali bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining nutqiy- lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish	**238**
Mamarayimova Dildora Baxtiyarovna	Turizm sohasi talabalarining ingliz tili leksikasini o‘qitishda interferensiyaning roli	**240**
Najmiddinova Oliya Muhiddin qizi	Curriculum Design: Toward Meaningful and Holistic Learning	**243**
Mudarisova Raykhon Khodjaevna	Theoretical Foundations of Implementing Artificial Intelligence Technologies in the Educational Process	**247**
Qurbonova Dilnoza Allanazarovna	English Language Teachers’ Readiness for Implementing 4c Competencies in Higher Education	**249**